

**KOMPOZITOR AVAZ MANSUROV IJODIY FAOLIYATIGA BIR
NAZAR**

Samijonova Ruhshona

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" fakulteti "Xalq cholg'ulari" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Axadjon Mamadaliyev

*Ilmiy raxbar: O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida dotsenti,
Turon fanlar akademiyasi faxriy professori*

O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o'sishi, jahon klassik bastakorlari asarlarining o'zlashtirilishi, O'zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo'ldi[1].

O'zbekiston Yoshlar mukofoti sovrindori, O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti rektori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasida professori, kompozitor Avaz Mansurov o'zining alohida uslubi bilan ajralib turadi. Kompozitor turli janrlarda, ayniqsa qo'shiqchilikda barakali ijod qilib kelmoqda[2].

Mansurov Avaz Maqsudovich 1957 yil 2 noyabrda Qo'qon shahrida tug'ilgan. Avazning bolalik yillari teatr sahnasida hamda mashhur xonanda va sozandalarning musiqa va she'riyat davralarida o'tdi. 1982-yilda M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining «kompozitsiya va cholg'ulashtirish» kafedrasini professor B.I.Zeydman sinfida, 1986-yili assistenturani professor F.M.Yanov-Yanovskiy rahbarligida bitirgan. Kompozitor A.Mansurov ish faoliyatini 1973 yilda Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining orkestrida sozandalikdan boshladi. 1981-1983 yillarda o'qish bilan bir qatorda Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi

bolalar musiqa maktabida ishladi. 1982-yili konservatoriyada o'qishni bitirgach kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedrasida pedagog lavozimida va assistenturada qoldirildi. Mazkur kafedrada 1990-1993 yillari katta o'qituvchi, 1993-yildan dotsent, 1993-1998 yillarda «Sharq fakulteti» dekani, 1998-yildan «kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedra»si mudiri, 2000-2010 yillarda konservatoriya o'quv ishlari bo'yicha prorektor, 2007-yildan «kompozitsiya va cholg'ulashtirish kafedra»si professori, 2017 yildan konservatoriyaning o'quv ishlari bo'yicha 1-prorektori, 2022 yil 1 martdan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti rektori lavozimlarida ishlab kelmoqda.

Avaz Mansurovning musiqa bastalash ishqini musiqa maktabida o'qib yurgan kezlari boshlandi. U birinchi ijodiy qadamini fortepiano uchun “Qizcha va tulki”, “Qo'rqinchli tush” ertaklariga musiqa bastalashdan boshladi. Musiqa bilim yurtida o'qib yurgan paytlarida ham skripkachilar ansambli uchun “So'zsiz qo'shiq”, fortepiano uchun “Tokkata-prelyudiya” va bir necha qo'shiqlari uning ijodiga bag'ishlangan maxsus mualliflik konsert dasturida jarangladi. Bu konsert A.Mansurov uchun sinov maktabi bo'lib xizmat qildi va uni katta san'at yo'liga chorladi. Kompozitorning bugun erishgan yutuqlari uzoq vaqt davomida qilgan mashaqqatli mehnatlari va ijodiy izlanishlarining samarasidir. Serqirra kompozitor musiqa san'atining barcha janrlarida unumli ijod qilib, o'z asarlari bilan mustaqil respublikamizning musiqa madaniyatini rivojlanishiga samarali hissa qo'shib kelmoqda.

Avaz Mansurovning o'zbek musiqasi hayotida tutgan o'rni va kompozitorlik faoliyati

Kompozitor A.Mansurovning ijodiy faoliyatida kamer vokal janrlar ustunlik qiladi. Uning ovoz, skripka va fortepiano uchun yozgan “Muhabbat” lirik turkumi, 10 dan ortiq romanslari musiqiy jamoatchilik tomonidan yuqori baholandi. Ayniqsa bolalar qo'shiqlarini yaratishda A.Mansurov yuqori natijalarga erishdi. O'zteleRadiokompaniyasi qoshidagi “Bulbulcha” bolalar xor jamoasi ijrosida yangragan “Quyosh bilan suhbat”, “Kel, baxt kuyin kuylaylik”, “Oq kabutarning

parvozi” (T.Komilov soʻzlari), “Hur respublikam”, “Muzqaymoq”, “Shahrim-faxrim”, “Tomchilar qoʻshigʻi”, “Baxtli bolalik” (X.Qayumov soʻzlari), “Uch baho”, “Dangasa”, “Dakan xoʻroz”, “Quvnoq bolalar”, “Qoʻshigʻim jon qoʻshigʻim”, “Ming assalom ustozlar”, “Bol arilar” (P.Moʻmin soʻzlari), “Oʻzbekiston salomi”, “Jonajon kapalak” (X.Muhammad soʻzlari), “Oʻzbekiston onajon!” (A.Koʻchimov sheʻri), “Kitob mening doʻstimsan” (Z.Diyor sheʻri), “Bulbulcha qoʻshigʻi” (T.Mullaboyev soʻzi), “Qoʻgʻirchogʻim oʻyinchoq” (M.Qahhorov soʻzi), “Samolyot”, “Mashinam” (B.Isroilov soʻzlari), “Biz askarmiz, askarmiz”, “Oftobjonim-oʻrtoqjon”, “Teraklarim-tollarim” (Q.Ota soʻzlari) kabi 100 dan ortiq qoʻshiqlari mashhur boʻlib, kompozitorga shuhrat keltirdi.

Kompozitor estrada janrida ham unumli ijod qilib kelmoqda. “Navroʻz”, “Chimyon”, “Oydin yoʻl”, “Chamandagi chamanim”, “Sogʻinib oʻygʻonar tonglar...”, “Talabalar qoʻshigʻi”, “Askarlar qoʻshigʻi” (Nazarmat soʻzi) kabi estrada qoʻshiqlari shular jumlasidandir.

Kompozitor A.Mansurovning ijodiy faoliyatida teatr-sahna asarlarga musiqa bastalash ham ustuvor turadi. U yillar davomida “Oʻzga sayyoralik robot” (1984-y. X.Qayumov librettosi), “Hayvonlar sultoni” (1989-y. B.Isroil va F.Safarovlar librettosi) bolalar operalarini, “Ilonshoh va uning amaldorlari Ari haqida” (1982-y. Q.Hikmat ertagi), “Sharq afsonasi” (1983-y. I.Ismoilov librettosi) baletlarini, 20 ta musiqali spektakllar, shular qatorida “Kachal polvon va Garmsel” (1988-y. A.Muxiddinov, A.Yunusov, X.Imonberdiyevlar pyesasi), “Qorin-botir” (1993-y. A.Obidjon pyesasi), “Vesyoliy obmanshik” (1994-y. I.Lukyanov pyesasi), “Qoʻngʻiroqli yolgʻonchi” (1983-y. A.Obidjon pyesasi) myuzikllarini, “Xoʻja Nasriddinning 41 pashshasi” (1985-y. Z.Yaglyam pyesasi) “Hamza” (1986-y.); “Muhabbat” (1987-y. A.Qahhor hikoyasi asosida radiospektakl) spektakllarini, “Ur toʻqmoq” (S.Priobrajenskiy pyesasi), “Kolso magribskix koldunov” (1990-y. V.Borisov pyesasi), “Shoʻx xoʻtikcha” (1991-y. Temurbek pyesasi), “Uchar kovush” (1991-y. I.Jumanov pyesasi), “Kashmir qoʻshigʻi” (1992-y. Temurbek pyesasi) musiqali ertaklarini, “Bir soatlik xalifa” (Nasrullo Qobul pyesasi), “Gʻallatepalik avliyo” (1982-y. M.Muhammaddoʻst senariysi) musiqali

komediyalarini yaratdi.

Simfonik orkestr uchun ikkita simfoniya (1982-1988), “Simfonik poema” (1978), “Bayram uvertyurasi”, “Navro‘z bayramiga” (1984), “Obod yurtida bayram bugun” (2012) uvertyuralari, fortepiano va simfonik orkestr uchun “Konsert” (1981), o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun Konsert-fantaziya, “Fazoga intilish” (1980), “Mustaqillikka bag‘ishlov” (1992, M.Kenjabek so‘zi), “Shodiyona” (1994) madhiyalari, damli cholg‘ular orkestri uchun “Karnay sadosi” va “Askarlar marshi”, “So‘g‘diyona” orkestri uchun “Yangra doyra, jarangla!” uvertyurasi, “Yurtim jamoli” poppurisi, trombonlar ansambli uchun “Fanfarlar”, kamer cholg‘u asarlari, f-no uchun “Hayvonot bog‘ida sayr” musiqali manzaralar A.Mansurov qalamiga mansub. Shuningdek, cholg‘u ijrochiligi uchun ham asarlar yaratib kelmoqda. Jumladan, Chang va xalq cholg‘ulari orkestri uchun “Konsert fantaziya”sini misol keltirishimiz mumkin.

Iqtidorli kompozitor, talabchan rahbar, malakali murabbiy va mehribon ustoz Avaz Mansurovni Respublikamizda musiqa san‘atini rivojlantirishdagi faol xizmatlari uchun 1986 yili O‘zbekiston yoshlar mukofoti sovrindori, 1992-yili O‘zbekiston Respublikasi faxriy yorlig‘i, Xalq ta’limi va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklarining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan. Shuningdek 2022 yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining 85 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi unvoni bilan taqdirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Odilov. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. 1995 y.
2. A.Mamadaliyev. “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” Chang. 2021 y.